

## **BRONZA DAVRIDA DEHQONCHILIK VA CHORVACHILIKNING RIVOJLANISH DARAJASI**

**Bobomurodova Qunduz Abduxakim qizi**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada bronza davrida kishilik jamiyati madaniy taraqqiyotida sodir bo'lgan katta o'zgarishlar, aholi xo'jalik yuritishning muayyan ko'rinishlari, ya'ni vohalarda, ko'llar, daryolar va soylar bo'ylarida dehqonchilikka, dasht va tog'oldi hududlarida chorvachilikka o'tishi, dehqonchilikning madaniy jihatdan keng yoyilishi va chorvachilikdan ajralib chiqishi haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** sug'orma dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik, bog'dorchilik, metallurgiya, zargarlik, kulolchilik charxi, tariq, arpa, bug'doy, don yanchgich, kelisop va o'roqlar.

Bronzaning kashf etilishi ibtidoiy jamoa xo'jaligida buyuk o'zgarishlarga olib keldi. Bu insoniyatning iqtisodiy hayotigagina emas, balki siyosiy, madaniy, ma'naviy hayotida ham tub o'zgarishlar yasadi.

Jahon tarixida bronza davri miloddan avvalgi III ming yillik oxirlaridan boshlanadi. Bu davrda Qadimgi Misr, Mesopotamiya, Kichik Osiyo va Eronning janubi-g'arbida davlatlar shakllanib, quldorlik jamiyati keng ravnaq topgan edi. O'zbekiston hududida esa bu davr miloddan avvalgi II ming yillikning I choragida boshlanib, miloddan avvalgi VIII asrlargacha davom etadi. Shuningdek, jamiyat taraqqiyoti ham o'ziga xos tarzda davom etgan. O'rta Osiyoning janubiy hududlarida dehqonchilik madaniyati ravnaq topib, ilk shahar madaniyati tarkib topdi.

Bronza davrida O'rta Osiyoning o'troq aholisi sug'orma dehqonchilik madaniyatini va hunarmandchilik sirlarini yaxshigina egallagan edilar.

Bronza davrida kishilik jamiyati madaniy taraqqiyotida katta-katta o'zgarishlar sodir bo'ladi. Aholi xo'jalik yuritishning muayyan ko'rinishlariga, ya'ni vohalarda, ko'llar, daryolar va soylar bo'ylarida dehqonchilikka, dasht va tog'oldi hududlarida chorvachilikka o'tib oldi.

Bronza davri xo'jaligining eng katta yutug'i bu dehqonchilik madaniyatining keng yoyilishi va uning chorvachilikdan ajralib chiqishidir. Bu jarayon fanda birinchi ijtimoiy mehnat taqsimoti deb nomlanib, miloddan avvalgi II ming yillikning ikkinchi yarmida sodir bo'lgan. Ijtimoiy mehnat taqsimoti birinchi navbatda tabiiy sharoit muhitidan kelib chiqib ixtisoslashdi. O'rta Osiyoning janubiy va janubi-g'arbiy tumanlari dehqonchilik madaniyatining o'choqlariga aylandi. Uning cho'l va dasht

zonalarida chorvadorlar va Oʻrta Osiyoning shimoli-sharqiy, shimoli-gʻarbiy, markaziy hududlaridagi daryo etaklarida dehqonchilik madaniyati tarkib topa boshladi. Dehqonchilikdan chorvachilikning alohida soha boʻlib ajralib chiqishi qonuniy zaruriyat boʻlgan.<sup>1</sup>

Bronzadan yasalgan mehnat qurollari mehnat unumdorligini oshirdi, takroriy sugʻorma dehqonchilik asosida doimiy qishloqlar koʻpaydi, yangi yerlar oʻzlashtirildi, hunarmandchilikning yangi sohalari-metallurgiya, zargarlik rivojlandi, kulolchilikda charxdan foydalanishga oʻtildi, uy-joy qurilishida gʻishtdan foydalanildi, mustahkam mudofaa devorlari qurila boshlandi. Chorvadorlar zonasida ot va eshakdan transport sifatida foydalanishga oʻtildi. Gupchakli gʻildirakli aravalar paydo boʻldi. Bu davrga kelib Oʻrta Osiyoning ijtimoiy tuzumida ham oʻzgarish jarayonlari boʻlib oʻtdi. Urugʻchilik tuzumi bronza davrida ham davom etgan boʻlsada, ona urugʻining mavqei yoʻqolib bordi. Metall eritish va xoʻjalikning rivojlanishi natijasida jamiyatda erkaklar mehnati va mavqei birinchi darajali ahamiyatga ega boʻlib bordi. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, bronza davri jamiyat taraqqiyotida, dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va xunarmandchilik rivojlanishida erkaklar etakchilik qilganlar. Ayollar erkaklar ishlab chiqargan narsalarni isteʼmol qilishda ishtirok etsalar ham, unga egalik qilishdan mahrum boʻladilar. Ishlab chiqarishda hukmronlik qilish shu tariqa erkaklar qoʻliga oʻtadi va ona urugʻi tuzumi oʻrnini ota urugʻi (patriarxat) tuzumi egallaydi. Bronza davriga kelib ishlab chiqaruvchi kuchlarning, oʻsishi mehnat unumdorligining oshishi natijasida ayrim kishilar qoʻlida boylik (dehqonchilik qurollari, dehqonchilik, chorvachilik mahsulotlari va boshq.) toʻplanib borgan boʻlsa, baʼzi birlari qashshoqlashib ularga qaram boʻlib boradi. Bronza davriga mansub hududlardagi manzilgohlarni oʻrganib shunday xulosa chiqarish mumkinki, bu davrda ikki xil madaniyat xukum surgan. Birinchisi dehqonchilik bilan shugʻullanadigan qabilalar madaniyati. Ikkinchisi, qurgʻoqchilik erlarda, togʻoldi yaylovlarda chorvachilik bilan shugʻullanuvchilar. Metalldan ishlangan qurollar qadimgi ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotni tezlashtirgani tufayli Markaziy Osiyo dasht va togʻ oldi hududlarida yashagan aholi boshqa aholidan (dehqonlardan) ajralib chiqadi va asosan chorvachilik bilan mashgʻul boʻladi. Bu tarixiy jarayon kishilik jamiyati taraqqiyotidagi dastlabki yirik mehnat taqsimoti edi.

Bronza davrida urugʻ jamoasi yemirila boshladi va ilk davlatchilik elementlari shakllandi. Qoʻshni mamlakatlar, ayniqsa chorvadorlar bilan dehqonlar oʻrtasida tovar ayirboshlash jonlandi. Qabilalararo munosabatlarda bir-biri bilan aralashib, yangi etnoslarning shakllanishi va ularning madaniyatlari vujudga kela boshladi. Masalan,

---

<sup>1</sup> Кабилов Ж., Сагдуллаев А Ўрта Осиё археологияси. - Тошкент, Ўқитувчи. 1990.

Hozirgi Qirg'iziston, Qozog'iston cho'llarida yashagan Andronova madaniyati chorvadorlari bilan miloddan avvalgi II ming yillik o'rtalarida O'zbekistonning shimoliy va janubiy hududlariga kirib borib, mahalliy aholi bilan aralashib ketgan va Tozabog'yob, Qayroqqum kabi madaniyatlar shakllangan.

Bronza davrida dehqonchilik va chorvachilik O'rta Osiyo madaniyatining asosiy sohalari bo'lgan. Metalldan ishlangan qurollar qadimgi iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotni teshlashtirgani tufayli O'rta Osiyo cho'llarida yashagan qabilalar boshqa aholidan ajralib chiqadi va asosan chorvachilik bilan mashg'ul bo'ladi.

Hozir bu tipdagi yodgorliklarni uchta katta xronologik davrga, ya'ni ilk, rivojlangan va so'nggi bronza davriga bo'lish mumkin. O'rta Osiyoning shimoliy va sharqiy qismlarida mavjud bo'lgan bronza yodgorliklari madaniyati janubiy o'troq bronza yodgorliklaridan ajralib turadi.

Taraqqiy qilib borgan dehqonchilik madaniyati haqida arpa, bug'doy, javdar (qora bug'doy), don qoldiqlari, mehnat qurollari – yorg'uchoqlar, xovonchalar, o'roqlar va boshqa topilmalar dalolat beradi.

Dehqonchilik bilan birga odamlar hayotida uy chorvachiligi o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ko'pincha makonlardan qo'y, echki va sigir suyaklari topildi. Chorvachilik dehqonchilikning yordamchi tarmog'i bo'lgan. Yovvoyi hayvonlar oviavvalgi ahamiyatini yo'qotgan bo'lsa-da, lekin yodgorliklarning madaniy qatlamlarida jayron va tog' echkisi suyaklari ham uchraydi. Ilk va rivojlangan bronza davrida ot va tuya qo'lga keng o'rgatilmagan, deyish mumkin.

Bronza davrida O'zbekistonning janubiy hududlarida o'troq dehqonchilik madaniyati taraqqiy etadi. Janubiy O'zbekistonning bronza davri yodgorliklari tog' oldi hududlari va tog'lar oralig'idagi vohalarda, suv manbalariga yaqin hududlarda joylashgan<sup>2</sup>.

Janubiy O'zbekistonning bronza davri yodgorliklarini rayonlashtirish masalasi A.Asqarov, E.V.Rtveladze, A.S.Sagdullaev hamda Sh.B.Shaydullayev tadqiqotlarida muhokama etilgan<sup>3</sup>.

Janubiy O'zbekistonning bronza davriga oid shuningdek, daryo va ularning o'zanlarida shakllangan Urgulsoy, Bandixon, Mirshodi va Sangardak-To'palang kabi mikrovoahalarini qayd etish mumkin<sup>4</sup>.

<sup>2</sup> Сагдуллаев А.С. Қадимги Ўрта Осиё тарихи. – Тошкент: “Университет”, 2004. – Б. 30.

<sup>3</sup> Асқаров А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. –Ташкент, Фан, 1977.; Ртвеладзе Э.В. К характеристике памятников Сурхандарьинской области ахеменидского времени // СА. – № 2. – М., 1975. – С. 263-266.; Сагдуллаев А.С. Древнеземледельческие поселения предгорий Байсунтау. История и археология Средней Азии. – Ташкент, 1978; Шайдуллаев Ш. Ўзбекистон ҳудудида давлатчиликнинг пайдо бўлиши ва ривожланиш босқичлари (Бақтрия мисолида). Т.ф.д. дис. – Самарқанд, 2009.

<sup>4</sup> Каримова Д.О. Шимолий Бақтрия аҳолисининг дафн маросимлари ва диний эътиқодлари (бронза даври моддий маданият ёдгорликлари мисолида). Тарих фан. бўйича фал. докт... дисс. – Тошкент, 2017. – Б. 20.

Janubiy O‘zbekiston dehqonchilik rivoji uchun tabiiy qulay geografik hudud hisoblangan bo‘lib, bronza davridayoq hudud aholisi sun‘iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilik bilan shug‘ullanganligi tadqiqotlar natijasida aniqlangan. Sopollitepa aholisi Janubiy O‘zbekiston hududining eng qadimgi dehqonlari sifatida e‘tirof etiladi<sup>5</sup>. Sopollitepadan aniqlangan arpa, bug‘doy, tariq donlari, shuningdek, don yanchgich, kelisop va o‘roqlar kabi mehnat qurollari bu davr aholisi hayotida dehqonchilik muhim ahamiyat kasb etganligini asoslaydi<sup>6</sup>.

Janubiy O‘zbekiston (Surxondaryo) muqim o‘troqlik o‘choqlaridan biri hisoblanadi. Bronza davri yodgorliklari qadimgi sug‘orma tumanlar – Ulombuloqsoy, Sherobod, Bandixon va Mirshodida topib o‘rganilgan. Qadimgi dehqonlar atrofi devorlar bilan o‘ralgan qishloqlarda yashaganlar. Bronza davri aholisi soylar bo‘ylariga tarqalib, sug‘orma dehqonchilikda ularning suvlaridan foydalanganlar. Mahalliy sug‘orish tajribasida soylardan kanal va ariqlar chiqarish katta ahamiyatga ega bo‘lgan.

Surxondaryo issiq iqlimli o‘lka bo‘lib, shimol, shimoli-g‘arb va sharqda va sharqda Hisor, Ko‘hitog‘, Bobotog‘, janubda Amudaryo bilan chegaralangan. Qadimgi sug‘orish erlari tog‘ tizmalariga yaqin joylashgan.<sup>7</sup>

Qadimgi Sharq sivilizatsiyasi o‘choqlaridan biri bo‘lgan Janubiy O‘zbekiston dehqonchilikka eng qulay hududlardan biri hisoblanadi. Asosiy dehqonchilik kichik daryo o‘zanlarida amalga oshirilgan. Shunday daryolardan biri Sherobod daryosi tog‘liklardan vohaga o‘tganda, ayniqsa Amudaryoga quyilish erlariga yaqinlashganda o‘nlab o‘zanlarga ajralib ketganligini uning quruq o‘zanlari tasdiqlaydi. Aynan mana shu o‘zanlar bo‘ylarida bronza davri yodgorliklari joylashgan.<sup>8</sup> Sherobod vohasi tabiiy sharoitining yana bir xarakterli tomoni shundaki, quyosh o‘z nurlarini eng avval Ko‘hitangtog‘ga taratadi. Bahor, yoz va kuz oylarining dastlabki kunlarida quyosh issig‘idan tashqari Ko‘hitangtog‘dan ham issiq havo oqimi - tafti vohaga ufurib turadi. Tun yarmigacha havoning tafti qaytmaydi. Bu holat dehqonchilik ekinlarining yaxshi rivojlanishi va serhosil bo‘lishiga imkoniyat yaratadi.

Bu davr jamoalarning iqtisodiy asosini dehqonchilik, chorvachilik, ixtisoslashgan hunarmandchilik va konchilik ishlari tashkil etgan. Tariq, arpa va bug‘doy ekilgan,

<sup>5</sup> Асқаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. – Тошкент: О‘zbekiston, 2015. – Б. 147.

<sup>6</sup> Асқаров А. Сапаллитепа. – Ташкент: Фан, 1973. – С. 130.

<sup>7</sup> Кабиров Ж., Сагдуллаев А Ўрта Осиё археологияси. - Тошкент, Ўқитувчи. 1990.С.127.

<sup>8</sup> Абдиев В.И. Қадимги Шарқ тарихи. – Тошкент, 1964.- Б.17

bog'dorchilik rivojlangan, mayda chorva va qoramol boqilgan, qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan ayirboshlash va tashqi savdo-sotiq aloqalari mavjud bo'lgan<sup>9</sup>.

Ma'lumki, bronza davrining xo'jalik sohasida erishgan eng katta yutuqlaridan biri qadimgi dehqonchilikning keng yoyilishi va chorvachilikning dehqonchilikdan ajralib chiqishidir. Ishlab chiqarish munosabatlari rivoji ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda sezilarli o'zgarishlarga olib keldi<sup>10</sup>.

Metallurgiya rivoji va mehnat qurollarini yasash uslubi o'zgarishi bilan odamlar mis, qalay va qo'rg'oshin konlarini kashf etadilar. Bronza davrida (mil. avv. III ming yillikning o'rtalari – II ming yillik) o'zlashtirilgan erlar va yashash hududlar tobora kengayib borgan. Aholi sonining o'sishi, qabilalarning o'zlashtirilgan hududlarda zich joylashishi, doimo o'sib borayotgan xo'jalik va hunarmandchilik ehtiyojlari, tabiiy qazilma boyliklar – polimetallar ruda konlari, bo'z erlar, suv manbalari va keng yaylovlarni o'zlashtirish zaruratini vujudga keltirgan. Mazkur omillar dehqonchilik va urbanizatsiya jarayonlarining rivojlanishi hamda mil. avv. II ming yillikda yaylovlarda boqiladigan chorvachilik ajralib, maxsus xo'jalik shakliga aylanishi bilan belgilangan<sup>11</sup>. Shuni ham alohida qayd etish joizki, uy chorvachiligi bronza davri jamoalari hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Sopollitepada 16 mingtacha hayvon suyaklari aniqlangan bo'lib, ularning asosiy qismi qo'y va echkiga tegishli bo'lsa, shuningdek, ular orasida cho'chqa, tuya, sigir, it va mushuk suyuqlari ham uchraydi. Bronza davri odamlari hayotida yovvoyi hayvon va qushlarni ovlash ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan, zero arxeologik yodgorliklardan aniqlangan bug'u, jayron, quyon, o'rdak, kaptar va shu kabi boshqa hayvon va parranda suyuqlari qoldiqlari yuqoridagi fikrlarni tasdiqlaydi<sup>12</sup>. Qo'shimcha tarzida aytish mumkinki, osteologik ma'lumotlar tahlili hayvon suyaklarining asosiy qismi uy hayvonlariga (Sopollitepada – 70,2%, Jarqo'tonda – 90 %, Kuchuktepaning bronza davri qatlamida – 73,4% bo'lsa ilk temir davri qatlamlarida – 85,2%, Talashkantepada – 78,2%), shuningdek, qolgan qismi yovvoyi hayvonlarga (Sopollitepada – 29,8%, Jarqo'tonda – 10 %) tegishli ekanligini ko'rsatadi. Jarqo'tondan etti turdagi uy havonlari hamda o'n olti turdagi yovvoyi hayvon suyaklari qoldiqlari aniqlangan<sup>13</sup>

<sup>9</sup> Аскарлов А.А. Южный Узбекистан – древнейший очаг сельскохозяйственных культур эпохи бронзы // Проблемы истории, археологии и этнологии Центральной Азии. – Ташкент, 2018. – С. 26-29.

<sup>10</sup> O /Masson V.M. The Bronze Age in Khorasan and Transoxania // History of civilizations of Central Asia. Volume 1. Paris, 1996. – P. 225.

<sup>11</sup> Сагдуллаев А.С., Шайдуллаев А.Ш., Тоғаев Ж.Э. Археологик ёдгорликларнинг географияси ва картографияси // Қадимий Жиззах воҳаси – Марказий Осиё цивилизацияси тизимида (сиёсий, иқтисодий, маданий ҳаёт). Республика илмий-амалий конференция материаллари. Жиззах, 2019. – Б. 100.

<sup>12</sup> Сагдуллаев А.С. Қадимги Ўрта Осиё тарихи. – Тошкент: “Университет”, 2004. – Б. 30.

<sup>13</sup> Батыров А.Х. Фауна диких и домашних животных из памятников эпохи бронзы и раннего железа на юге Узбекистана // ИМКУ. Вып. 18. – Ташкент, 1983. – С. 49-56.

Aniqlangan uy-hayvonlari suyaklari (foiz ko'rsatkichida %) <sup>14</sup>

Hayvon turi	Bronza davri		
	Jarqo'ton	Sopollitepa (Botirov bo'yicha 1974)	Kuchuktepa I
Yirik (shoxli) chorva	18,0	36,5	14,6
Mayda (shoxli) chorva	60,0	55,1	51,7
To'ng'iz	0,8	3,4	10,4
Ot	7,7	-	5,2
Tuya	0,4	0,8	3,4
It	8,5	0,8	3,4

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, mayda (shoxli) chorva Janubiy O'zbekistonning bronza va ilk temir davri yodgorliklarida ustunlik qilgan. Yirik va mayda chorva aholining go'sht, sut hamda teri mahsulotlariga bo'lgan asosiy ehtiyojlarini ta'minlagan.

**Xulosa o'rnida shularni aytish mumkinki**, bronza davrining xo'jalik sohasida erishgan eng katta yutuqlaridan biri qadimgi dehqonchilikning keng yoyilishi va miloddan avvalgi II ming yillikning ikkinchi yarmida chorvachilikning dehqonchilikdan ajralib chiqishidir. Mazkur davrda ishlab chiqarish munosabatlari tez rivojlanib, ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarga ta'sir qiladi. Ishlab chiqarishning o'sishi natijasida, shaharsozlik va me'morchilik rivojlandi. O'rta Osiyo mintaqasining janubiy hududlarida dastlabki o'troq dehqonchilik madaniyati manzilgohlari shakllanib, shular asosida qadimgi shahar manzilgohlari taraqqiy etdi. Mintaqada dastlabki shaharlar shakllanib, ular mudofaa devorlari bilan o'rab olinadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Masson V.M. The Bronze Age in Khorasan and Transoxania // History of civilizations of Central Asia. Volume 1. Paris, 1996. – P. 225.
2. Аскарлов А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. –Ташкент, Фан, 1977.; Ртвеладзе Э.В. К характеристике

<sup>14</sup> Батыров А.Х. Фауна диких и домашних животных из памятников... С. 53.

памятников Сурхандарьинской области ахеменидского времени // СА. – № 2. – М., 1975. – С. 263-266.; Сагдуллаев А.С. Древнеземледельческие поселения предгорий Байсунтау. История и археология Средней Азии. – Ташкент, 1978; Шайдуллаев Ш. Ўзбекистон ҳудудида давлатчиликнинг пайдо бўлиши ва ривожланиш босқичлари (Бактрия мисолида). Т.ф.д. дис. – Самарқанд, 2009.

**3.** Асқаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. – Тошкент: O‘zbekiston, 2015. – Б. 147.

**4.** Аскарлов А. Сапаллитепа. – Ташкент: Фан, 1973. – С. 130

**5.** Кабиров Ж., Сагдуллаев А Ўрта Осиё археологияси. - Тошкент, Ўқитувчи. 1990.Б.127.

**6.** Сагдуллаев А.С., Шайдуллаев А.Ш., Тоғаев Ж.Э. Археологик ёдгорликларнинг географияси ва картографияси // Қадимий Жиззах воҳаси – Марказий Осиё цивилизацияси тизимида (сиёсий, иқтисодий, маданий ҳаёт). Республика илмий-амалий конференция материаллари. Жиззах, 2019. – Б. 100.